

# SURXON TONGI

2025-yil  
6-yanvar  
(dushanba)  
1-son  
(17 934)

1935-yil 18-martdan chop etila boshlagan

surxontongi.uz

t.me/surxontongi

## ISLOHOTLAR AMALDA



## XOTIRJAM KO'NGILLAR...

Uy — vatan ichra kichik bir vatandir. Umr bo'yi ishlab, mehnat qilib, uy solishga, ezgu niyatlar ila imorat qurishga harakat qilishimizning boisi ham shundan. Axir, farzand-u nabiralirimizga bizdan vatan qolishi kerak-ku?! Yil boshida turib, birinchi navbatda, ana shunday tilaklar ko'nglimizdan o'tishi tabiiy.

ular Muzrabot, Sherobod va Angor tumanlarida turar-joyga ega bo'lgan yoki ota-onasi uyida istiqomat qilayotgan nogironligi bor ehtiyojmand oilalarga Yangi yil sovg'asi bo'ldi.

tashvishi arib, ko'ngliga xotirjamlik inadi. Oilasi, farzandlari bilan barcha shart-sharoitlari badastur xonadon esa ancha yillik orzularning ro'yobi — Yangi yil mo'jizasi bo'ldi.

Axir, yetti yildan ortiq vaqt ijara yashab keldik. Shu davrda to'rt marta ijara uyimizni almashtirdik. Orada farzandlarimiz ham ulg'aydi. Endi turmush o'rtog'im ham musofir yurtidan o'z uyiga qaytadigan bo'ldi. Bizdek ehtiyojmand, uy-joyi yo'q oilalarga ko'rsatilayotgan bunday g'amxo'rlik uchun davlatimizdan behad minnatdormiz.

Tinch, osuda hayotimiz posbonlari homiyligida barpo etilgan mo'jizaga massivda mahalla markazi, savdo va xizmat ko'rsatish nuqtalari, kitob do'koni, tibbiyot maskani, hajmi 40 tonna sig'imga ega 21 ta intensiv baliqxonona, uchta 50 tonna suv sig'imga ega ko'p foydalanishga topshirildi. Ularda ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning ishsiz a'zolari mehnat qilib, munosib turmush kechirish uchun zarur daromadga ega bo'ladi.

Nogironligi bo'lishiga qaramay, cho'ponlik qilib ro'zg'or tebratayotgan sherobodlik Xolmurod Boyto'rayevning turmush o'rtog'i hech qayerda ishlamaydi. Farzandlar tabiiyati bilan band. Oilaning tashlandiq uydagi yashayotgani esa haqiqiy ahvol yaxshi emasligini oshkor qilib qo'yadi. Yangi yil arafasida yangi uyni qurib, farovon turmush kechirish uchun barcha sharoit yaratilgan. Biryola jihozlanib, zamonaviy loyihalar asosida qad rostlagan shinam va yorug'

— Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi doirasida viloyat ichki ishlar boshqarmasi homiyligida bunyod etilgan 2 sotixli yangi uy-joyda tinch, farovon turmush kechirish uchun barcha sharoit yaratilgan. Biryola jihozlanib, zamonaviy loyihalar asosida qad rostlagan shinam va yorug'

Afsuski, uy qurish oson emas, hammaning ham qurbi, imkoniyati yetavermaydi. Ammo osmoni musaffo, tinchlik-osudalik hukm surayotgan, inson qadri ulug'langan bu yurtda hammaning ham o'z uyi bo'lishi shartligi davlat siyosati darajasidagi masalaga aylangan. Bunga o'z ko'zlarimiz bilan guvohi bo'layotganimiz qalbmizda iftixor tuyg'ularini mavjlantirib tuboradi.

Surxondaryo viloyatining Muzrabot, Sherobod va Angor tumanlarida yashaydigan ijtimoiy himoyaga muhtoj, nogironligi

bo'lgan 30 oila Sherobod tumanidagi "Bog'ibod" mahallasida foydalanishga topshirilgan o'z uylarida Yangi yilni kutib olishdi. Yangi uy egalari o'z uylarida Prezidentimizning O'zbekiston xalqiga Yangi yil tabrigini tinglab, qalbi bir olam faxrga to'lgani haqiqatdan quvonchli hodisa deyish mumkin.

— "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi doirasida viloyat ichki ishlar boshqarmasi homiyligida bunyod etilgan 2 sotixli yangi uy-joyda tinch, farovon turmush kechirish uchun barcha sharoit yaratilgan. Biryola jihozlanib, zamonaviy loyihalar asosida qad rostlagan shinam va yorug'

## BIZGA YUKSAK ISHONCH VA QUVVAT

**IFTIXOR** Har bir ishning sarhisobi bo'lgani kabi 2024-yilning yakuni bo'yicha hurmatli Prezidentimizning bayram tabrigini eshitib, ko'nglim shukuhga to'ldi. Negaki, Prezidentimizning Yangi yil tabrigi yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va erishilgan natijalarni yana bir bor chuqur anglashga imkoniyat berdi. Ushbu tabrik har birimizga kuch-g'ayrat bag'ishlab, kelgusi yildagi maqsadlarimizga erishish yo'lida ilhom manbai bo'ldi.

Tabrikda iqtisodiyotda barqaror o'sish ko'rsatkichi oshib, yil yakuniga ko'ra mamlakat yalpi ichki mahsuloti 5,6 foizga o'sganligi, eksport hajmi 19 milliard AQSH dollarini tashkil etganligi, bu o'tgan yilga nisbatan 12 foizga ko'p ekanligi haqida aytib o'tilganda, qalban g'ururlandim. Demak, iqtisodiyotning o'sishi bu hayotimiz ravnaqidir. Odamlarning ish o'rni ko'payganligi, mehnat bozorida kasbiy ko'rsatkichlarning o'sganligidan dalolatdir.

Yoki qishloq xo'jaligi sohasida bir qator zamonaviy texnologiyalar joriy etilishi natijasida umumiy mahsulot hajmi 7 foizga oshganligi ham tashqi va ichki savdo uchun yangi ish usullarining keng quloch yozganligidan darakdir. Ayniqsa, paxta va g'alla hosildorligida yuqori ko'rsatkichlar qayd etilganligi bu sohada zahmatkash dehqonlarimizning zamon bilan hamnafasligi hosilidir. Donishmandlar ta'kidlaganlaridek, harakatda baraka bo'lar ekan-da, faqat va faqat harakat qilinsa, vaqtdan unumli foydalanilsa, baraka yog'ilaveradi.

Tibbiyot sohasida ham yil yakuniga qadar katta o'zgarishlar amalga oshirilganligi hech kimga sir emas. Ha, rostdan ham, bugun respublikamiz miqyosida 15 ta yangi tibbiyot muassasasining foydalanishga topshirilishi, bu esa o'z o'rinda 300 mingdan

ortiq aholining zamonaviy tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lganligi, shuningdek, 10 mingdan ortiq tibbiyot xodimlari chet el mamlakatlarida o'z malakasini oshirib kelishi ortidan tibbiy xizmat ko'rsatish sifati oshib, xalqimiz salomatligi uchun amalga oshirilgan ishlar sifati ancha o'sdi. Darhaqiqat, bugun yurtimizda jigar va buyrak transplantatsiyalarida ham aholi tibbiyotimizga nisbatan ancha ko'nikma va ishonch hosil qilgan, endi o'zimizda amalga oshirilayotgan jarrohlik amaliyoti xususida ham faxr bilan gapirishmoqda, tavsiya qilishmoqda.

Shuningdek, Axborot texnologiyalari sohasida ham 100 mingdan ziyod aholi raqamli ta'lim dasturlarida ishtirok etishi natijasida IT-eksport hajmi 250 million AQSH dollariga yetganligi ham o'z-o'zidan emas. Bu borada amalga oshirilgan ishlar talaygina yangiliklarga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, joylarda tashkil etilgan IT-parklariga yoshlarning qiziqish va ishtiroq bilan tashrif buyurishlarini kuzatib, dil ravshan tortadi.

Yil davomida respublikamiz hududida 120 ta yangi maktab binolari qurilib, 300 dan ortiq ta'lim muassasalari kapital ta'mirdan chiqarildi. Buning natijasida 2 milliondan ziyod o'quvchi zamonaviy sharoitlarda ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'ldi. 10 mingdan ortiq o'qituvchi xorijiy tajriba asosida qayta tayyorlov kurslarida ta'lim olib kelib, 50 ga yaqin maktabda xalqaro ta'lim dasturlari joriy etilishiga erishildi.

O'quvchilarimizning yil davomida xalqaro fan olimpiadalarida faol ishtirok etib, 40 ta oltin, 55 ta kumush va 75 ta bronza medallarini qo'lga kiritishi ham quvonchli voqeadir. Bu esa o'z o'rinda yurtimizning nufuzini yanada oshirdi. Bular orasida matematika, kimyo va informatika sohalaridagi yutuqlarini alohida e'tirof etish maqsadga muvofiq. Bu kabi ishlar haqida gapirilganda, yil davomida viloyatimiz hududida ham bir qancha yangilanishlar yuz berganligini faxr bilan qayd etish lozim. Yilning ilk choragida viloyatimizda mavjud maktab kutubxonalarini "Bibtexnika" to'plamlari va yangi kitoblar bilan ta'minlandi. Yangi o'quvchilarning viloyatimiz bo'ylab 82 ta yangi maktab binolari foydalanishga topshirilgan bo'lsa, dekabr oyida Viloyat bolalar kutubxonasi binosi to'liq kapital ta'mirdan chiqarildi va foydalanishga topshirildi. Bu esa, o'z navbatida, kelajak avlodning bilimiga chanqoqligini, kitobga bo'lgan muhabbatini oshirishda o'zining alohida o'rni ega maskan ekanligini ko'rsatib bermoqda, sababi, bu yerga tashrif buyuruvchilar soni kundan kunga ortmoqda. O'quvchilarim Asila Xudoyqulova va Xudoyberdi Xolmo'minovlar ta'mirdan chiqqan kutubxonaga haqida menga yuzlanib:

— Ustoz, qanday yaxshi bo'ldi, avvallari zaxonalarda kitob o'qishda qiyonlardik, rosti, ba'zan borishga ham ikkilanar edik. Hozir esa tamoman boshqacha holat, boshqacha ko'rinish. Poytaxt kutubxonasida o'tirganday his qilasan

o'zingni.

Demak, yangiliklar har bir bola uchun ham muhim ekan. Bularning barchasi xalqimizning mehnati, sabr-matnati va birdamligining yorqin namunasidir. 2025-yilda ushbu yutuqlarni yanada mustahkamlash va yangi marralarga erishish har birimizning asosiy vazifamiz bo'ldi. 2025-yilda oldimizda turgan vazifalar va yangi marralar har birimizning kuch-g'ayratimizni birlashtirishni talab etadi.

Yangi yil — bu yangi imkoniyatlar yili. Xalqimiz birdamligi va mehnatsevarligi bilan bu rejalarni amalga oshirishimizga ishonchim komil. Yangi yilda yangi ish o'rinlari yaratish orqali kambag'allik qisqartiriladi. Barcha bolalar sifati ta'lim bilan qamrab olinib, har bir hududda innovatsion markazlar tashkil etiladi. Qishloq xo'jaligida ham eng ilg'or texnologiyalarni joriy etish orqali eksport hajmi oshiriladi. Bu ishlar, albatta, oson bo'lmaydi, ammo har birimiz o'z hissamizni qo'shsak, katta yutuqlarga erishamiz. Yangi yil har birimiz uchun imkoniyatlar yili bo'lishi kerak. Har bir inson o'z sohasida yuqori natijalarga erisha, yurtimiz taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shgan bo'ldi.

Prezidentimizning har bir yurtdoshimizga, har bir oilaga bildirgan iliq tilaklari bil uchun g'oyat muhimdir. Bu bizga yuksak ishonch va quvvat bag'ishlaydi.

**Dilbar NORMURODOVA,** Termiz shahridagi 11-umumta'lim maktabi o'qituvchisi, Xalq deputatlari Termiz shahar kengashi deputati

## VILOYAT AXBOROT VA OMMAVIY KOMMUNIKATSIYALAR BOSHQARMASI: KECHA VA BUGUN

**Zahiriddin TO'RAYEV,** Viloyat Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi boshlig'i

Viloyatimizda 36 ta gazeta-jurnal, 2 ta telekanal, bitta radiokanal, 5 ta veb-sayt, 4 ta xususiy nashriyot, 2 ta bosmaxona, 58 ta matbaa korxonasi hamda davlat boshqaruv organlarining 63 ta axborot xizmati faoliyat yuritayotgan bo'lib, ularda 480 nafarga yaqin xodim mehnat qiladi. Shuningdek, Adib Sobir Termiziy nomidagi viloyat, 13 ta tuman axborot-kutubxonalarida 304 nafar xodim kitobxonlarga xizmat ko'rsatish, fondlarni to'ldirish va saqlash, mutolaa madaniyatini oshirish va targ'ib qilish bilan shug'ullanib kelmoqda. Axborot-kutubxonalar markazlarining umumiy fondi 762 ming nusxani tashkil etadi.

Viloyat axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi ular faoliyatini muvofiqlashtirish, ro'yxatdan o'tkazish, qonunchilik normalariga muvofiqdigi bo'yicha doimiy monitoring olib borish, holatini tahlil qilish, muammolarini o'rganib, rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish, soha xodimlarining malakasini oshirish, ijtimoiy va huquqiy jihatdan himoya qilinishini ta'minlash, hududiy davlat organlari va boshqa tashkilotlarning ochiqlik darajasini, ularning mass-media bilan hamkorligini kuchaytirish kabi vazifalarni amalga oshirib kelmoqda.

Tashkilot O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining hududiy boshqarmasi bo'lib, Prezidentning 2019-yil 2-fevraldagi PF-5653-son Farmoni bilan viloyat matbuot va axborot boshqarmasi negizida tashkil etilgan.

Tarixga nazar tashlasak, Surxondaryo viloyati matbuot boshqarmasi O'zbekiston SSR Vazirlar Kengashining 1964-yil 5-martdagi 309-sonli Farmoyishi asosida Vazirlar Kengashining matbuot bo'yicha Davlat qo'mitasining hududiy bo'limmasi sifatida tashkil etilgan. 1972-1990-yillarda u viloyat nashriyot, poligrafiya va kitob ishlari boshqarmasi, 1990-yildan yana matbuot boshqarmasi deb yuritilgan.

Boshqarma 1989-yilga qadar viloyat bosmaxonasining ma'muriy binosida faoliyat olib borgan. 1989-yilda Termiz shahrida "Matbuot uyi" qurilib, foydalanishga topshirilgach, boshqarma ushbu binoga ko'chib o'tgan. Boshqarmaga turli yillarda A.Po'latov, S.Shendirovskiy, H.Haqberdiyev, N.Shoyardonov, N.Saidmurodov, E.Tangirov, X.Xolboyev, V.Mamatovlar rahbarlik qilgan.

Surxondaryo viloyati matbuot boshqarmasi matbaa, kitob savdosi, bosmaxonalar faoliyatini tashkil etish va ularda gazetalar chop etilishini tashkiliy jihatdan ta'minlash, bosma nashrlar uchun davlat byudjetidan ajratiladigan dotatsiya mablag'larini taqsimlash, ularning sarflanishini nazorat va taftish qilish, gazeta qog'ozini bilan ta'minlanishini nazorat qilish, kitob savdosi korxonalarini faoliyatiga rahbarlik qilish va hududda kitob savdosi tizimini takomillashtirish bilan shug'ullangan.

Byudjet mablag'lari matbuot boshqarmasiga berilgan va u orqali taqsimlangan. Shuning uchun ham viloyatdagi barcha gazetalar tahririyatlari matbuot boshqarmasi oldida hisobdor bo'lgan. Berilgan dotatsiyaning sarflanishi boshqarma tomonidan har yiliga bir marta taftish qilingan. Tasarrufidagi boshqa korxonalar va tashkilotlar rahbarlari singari gazetalar bosh muharrirlari ham boshqarma boshlig'i tomonidan lavozimga tayinlangan va lavozimdan ozod etilgan.

"Sovet tuzumi davrida ommaviy axborot vositalari to'g'risida qonun bo'lmagan edi, — deb yozadi taniqli jurnalist Karim Bahriyev. — Matbuot faoliyati hukumat qarorlari bilan tartibga solingan edi. Vladimir Leninning "Gazeta nafaqat kollektiv targ'ibotchi va tashviqotchi, gazeta kollektiv tashkilotchi hamdir", — degan ko'rsatmasi sovet matbuotining yetmish yillik faoliyati zamiridagi yagona "huquqiy" asos bo'lib keldi".

Davomi 3-sahifada.

## NUQTAYI NAZAR

### EKOLOGIK MADANIYAT: U QANDAY BO'LISHI KERAK?

Atrof-muhit muhofazasi bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar fikricha, ekologiyani asrash dunyo miqyosidagi eng dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda.

**Normamat MALLAYEV,** TerDU yuridik fakulteti dotsenti



Shu bois, bu haqda barcha ta'lim muassasalarida, mahallalarda, korxonalar hamda tashkilotlarda ona tabiatni amalga oshirishimizga ishonchim komil. Yangi yilda yangi ish o'rinlari yaratish orqali kambag'allik qisqartiriladi. Barcha bolalar sifati ta'lim bilan qamrab olinib, har bir hududda innovatsion markazlar tashkil etiladi. Qishloq xo'jaligida ham eng ilg'or texnologiyalarni joriy etish orqali eksport hajmi oshiriladi. Bu ishlar, albatta, oson bo'lmaydi, ammo har birimiz o'z hissamizni qo'shsak, katta yutuqlarga erishamiz. Yangi yil har birimiz uchun imkoniyatlar yili bo'lishi kerak. Har bir inson o'z sohasida yuqori natijalarga erisha, yurtimiz taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shgan bo'ldi.

Prezidentimizning har bir yurtdoshimizga, har bir oilaga bildirgan iliq tilaklari bil uchun g'oyat muhimdir. Bu bizga yuksak ishonch va quvvat bag'ishlaydi.

Shu bois, bu haqda barcha ta'lim muassasalarida, mahallalarda, korxonalar hamda tashkilotlarda ona tabiatni amalga oshirishimizga ishonchim komil. Yangi yilda yangi ish o'rinlari yaratish orqali kambag'allik qisqartiriladi. Barcha bolalar sifati ta'lim bilan qamrab olinib, har bir hududda innovatsion markazlar tashkil etiladi. Qishloq xo'jaligida ham eng ilg'or texnologiyalarni joriy etish orqali eksport hajmi oshiriladi. Bu ishlar, albatta, oson bo'lmaydi, ammo har birimiz o'z hissamizni qo'shsak, katta yutuqlarga erishamiz. Yangi yil har birimiz uchun imkoniyatlar yili bo'lishi kerak. Har bir inson o'z sohasida yuqori natijalarga erisha, yurtimiz taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shgan bo'ldi.

Shu bois, bu haqda barcha ta'lim muassasalarida, mahallalarda, korxonalar hamda tashkilotlarda ona tabiatni amalga oshirishimizga ishonchim komil. Yangi yilda yangi ish o'rinlari yaratish orqali kambag'allik qisqartiriladi. Barcha bolalar sifati ta'lim bilan qamrab olinib, har bir hududda innovatsion markazlar tashkil etiladi. Qishloq xo'jaligida ham eng ilg'or texnologiyalarni joriy etish orqali eksport hajmi oshiriladi. Bu ishlar, albatta, oson bo'lmaydi, ammo har birimiz o'z hissamizni qo'shsak, katta yutuqlarga erishamiz. Yangi yil har birimiz uchun imkoniyatlar yili bo'lishi kerak. Har bir inson o'z sohasida yuqori natijalarga erisha, yurtimiz taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shgan bo'ldi.

Davomi 2-sahifada.



# VILOYAT AXBOROT VA OMMAVIY KOMMUNIKATSIYALAR BOSHQARMASI: KECHA VA BUGUN

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.)

Faqat 1990-yilga kelibgina sobiq SSSRda "Matbuot va boshqa ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi va shu asosda xususiy ommaviy axborot vositalarini tashkil qilishga ruxsat berildi. Ittifoqdosh respublikalar Davlat matbuot qo'mitalari va ularning hududiy boshqarmalariga xususiy ommaviy axborot vositalarini ro'yxatga olish vazifasi topshirildi.

1995-yildan gazetalar davlat byudjetidan dotatsiya berish to'xtatilib, barcha sarf-xarajatlar gazetaning o'ziga va muassasi zimmasiga yuklatildi.

"Viloyatdagi bosmaxonalarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, matbaa mahsulotlari sifatini oshirish, yangi texnika va texnologiyalarni joriy etishda matbuot boshqarmasi boshliqlari Normo'min Saidmurodov, Eshmat Tangirov va Xoljigit Xolboyevning xizmatlari katta bo'lgan", — deb yozadi surxondaryolik taniqli jurnalist Davron G'ulomov. — Normo'min Saidmurodov boshqarmaga 1973-1977, Eshmat Tangirov 1977-1993, Xoljigit Xolboyev 1993-2001-yillarda rahbarlik qilgan.

**Viloyat matbuot boshqarmasi boshlig'i Eshmat Tangirovning bizga ko'rsatgan yordamlari salmoqli, — deb eslaydi Denov bosmaxonasi direktori M. Jo'rayev. — 1982-yilda u kishi bilan birga korxonamizga Leningraddagi "Poligrafmasht" zavodidan 5 ta linotip, 3 ta kichik ofset mashinasi va boshqa texnikalarni keltirdik...**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 3-iyuldagi PF-3103-son Farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Davlat matbuot qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi matbuot va axborot agentligi etib, matbuot hududiy boshqarmalari Matbuot va axborot hududiy boshqarmalari etib qayta tashkil qilindi.

2003-yildan bosmaxonalarni ham xususiylashtirish boshlandi, mustaqil poligrafiya korxonalari tarmog'i vujudga keldi. Viloyat matbuot va axborot boshqarmasida faqat ularning qonunchilikka rioya etilishi ustidan monitoringni amalga oshirish vakolati qoldi. 2003-yildan boshlab boshqarma ham o'zini-o'zi mablag' bilan ta'minlashga o'tdi.

2019-yilgacha viloyat matbuot va axborot boshqarmasi Agentlik hamda Surxondaryo viloyati hokimligi (avval viloyat ijroiya komiteti)ga ikki tomonlama bo'ysungan, o'z faoliyatini viloyat hokimligi bilan kelishgan holda Agentlik tomonidan tasdiqlanadigan nizomlarga muvofiq amalga oshirgan va viloyat hokimiga hisob bergan. Boshqarma boshlig'i viloyat hokimi taqdimnomasiga ko'ra Agentlik Bosh direktori tomonidan lavozimga tayinlangan va lavozimdan ozod etilgan.

**2018-yilda chorak asrdan ko'proq muddat ta'mirlanmagan, tashqi va ichki ko'rinishlari nochor ahvolga tushib qolgan**

**to'rt qavatli "Matbuot uyi" Surxondaryo viloyati hokimligi tashabbusi bilan qayta rekonstruksiya qilinib, barcha qulayliklarga ega muhtasham zamonaviy binoga aylantirildi.**

Xususan, binoda isitish tizimi bunyod etildi. Xonalar yangi mebellar, qishda isitib, yozda sovitadigan zamonaviy konditsionerlar bilan jihozlandi. Birinchi qavatda matbuot anjumanlari o'tkaziladigan keng, yorug' zal, kutubxona, kitob do'koni, ikkinchi qavatda majlislar zali, yosh ijodkorlar to'garagi barpo etildi. Binoning har bir qavatini yuksak did bilan bezatildi. Binoning tashqi qismi ham tamomila yangi, zamonaviy qiyofada bo'y ko'rsatdi.

Surxondaryo viloyati axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi tasarrufida bo'lgan "Matbuot uyi"da ayni paytda hududiy boshqarmadan tashqari Termiz shahrida chop etiladigan gazetalar, respublika markaziy nashrlarining viloyatdagi muxbirlari, O'zbekiston Jurnalistlar, Yozuvchilar uyushmalarining viloyat bo'limlari faoliyat yuritmoqda.

Boshqarma boshlig'i lavozimida 2002-2017-yillarda O'rol Oltiboyev, 2017-2019-yillarda Salohiddin Norqobilov ishladi. 2019-yilda viloyat matbuot va axborot boshqarmasi negizida viloyat axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi tashkil etilgach, uni 2019-2021-yillarda Sirojiddin Salomov, 2021-yildan to'g'ri kunga qadar Zahiriddin To'rayev boshqarib kelmoqda.

2019-yilda Agentlik tarkibidagi Alisher Navoiy nomli O'zbekiston Milliy kutubxonasi qoshida tuman (shahar) axborot-kutubxona markazlari tashkil etilgach, hududiy boshqarmaga viloyatdagi axborot-kutubxona muassasalari hisobini yuritish va ular faoliyatini ham muvofiqlashtirib borish vazifasi yuklatildi.

Hozirda viloyat hamda tumanlar axborot-kutubxonalar markazlari fondini milliy va ma'naviy xazinamizga taalluqli eng yangi badiiy, ilmiy, sohaga doir kitoblar, vaqti matbuot nashrlari, elektron resurslar bilan muntazam ravishda boyitib borish, Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan beshta muhim tashabbusning to'rtinchisi — yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish hududiy boshqarma va AKM faoliyatida hamisha ustuvorlik kasb etadi.

2019-yil 27-iyunda sohaga oid muhim hujjatlardan biri — O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4366-son qarori qabul qilindi.

Qaror bilan Agentlik hamda uning hududiy boshqarmalari zimmasiga davlat organlari va boshqa tashkilotlarning axborot xizmatlari faoliyatini muvofiqlashtirish va uslubiy jihatdan ta'minlash, lavozimga tayinlashda xulosa berish va har uch yilda attestatsiyadan o'tkazish vazifasi yuklandi.



Hududiy boshqarma viloyatdagi davlat organlari va boshqa tashkilotlarga ular faoliyatining ochiqchiligi ta'minlash, ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro hamkorligini yaxshilash bo'yicha doimiy yordam ko'rsatib keladi. OAV uchun matbuot anjumanlari, brifinglar, mediaturlar tashkil etish, axborot xurujlariga tezkorlik bilan javob qaytarishda Axborot xizmatlariga ko'maklashadi.

**2023-yilda viloyatda ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, odamlarni qiyayotgan muammolarni bartaraf etish va jamiyat hayotidagi islohotlar mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazishda OAVlarining mehnatidan samarali foydalanish maqsadida viloyat hokimligi Axborot xizmati bilan hamkorlikda "Telegram" messengerida "Hokimliklar & media (Surxondaryo)" guruhi tashkil etildi.**

Ushbu guruhga jurnalistlar va ijtimoiy tarmoq faollari, viloyat hokimi o'rinbosarlari, tuman, shahar hokimlari, ularning o'rinbosarlari, viloyatdagi boshqarma va tashkilotlar rahbarlari a'zo qilinib, muammo va murojaatlar yechimi shaxsan viloyat hokimining nazorati ostida hal etib borilmoqda.

Boshqarma tashabbusi bilan hududlarning turizm salohiyati, joylarda amalga oshirilayotgan islohotlar bilan jurnalistlarni yaqindan tanishtirish maqsadida Jurnalistlar ijodiy uyushmasi a'zolari, ommaviy axborot vositalari vakillari hamda blogerlar ishtirokida media-tur va ijodiy safarlar uyushtirilmoqda.

Hududiy ommaviy axborot vositalarining moliyaviy holatini yaxshilash, texnologik rivojlantirish, ularning jozibadorligini oshirish va mazmunan boyitish bo'yicha uslubiy yordamlar ko'rsatilib, mahalliy ekspertlar va mutaxassislarni jalb etgan holda ular uchun seminar-treninglar tashkil etib kelinmoqda.

Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasining viloyatdagi mavjud nashriyot, bosmaxona va matbaa korxonalari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan

chora-tadbirlari ham salmoqli. Ular faoliyatining qonunchilik normalariga muvofiqchiligi, litsenziyalash va ruxsat berish talablari va shartlariga, mahsulotlarini nashr etishda belgilangan sifat standartlariga rioya qilinishi ustidan tizimli nazorat olib borilmoqda.

**So'nggi yillarda viloyatdagi nashriyot-matbaa korxonalarining texnik imkoniyati, nashr etilayotgan kitoblar mazmunderligi, dizayni va adadi ancha yaxshilangan. Shuning uchun ham mahalliy ijodkorlarning o'z iste'dodi va mehnati mahsulini sifatli kitob tarzida chop ettirishni istab, respublika nashriyotlariga murojaat qilishi yildan yilga kamaymoqda.**

Qolaversa, viloyatdagi nashriyotlar mahalliy ijodkorlarning faqat nazmiy va nasriy to'plamlarini nashr etish bilan cheklanib qolmasdan, ilmiy-ommabop qo'llanmalar, pishiq badiiy asarlar, dostonlar hamda bolalar uchun qiziqarli qo'llanmalarni ham chop etyapti. Shu bois, viloyat, tumanlar markazidagi kitob do'konlarida sotuvga qo'yilgan matbaa mahsulotlari faqatgina markaziy nashriyotlarda tayyorlangan adabiyotlardan iborat bo'lib qolmay, mahalliy nashriyotlarda chop etilgan kitob mahsulotlari o'rni ham ancha salmoqli darajada. Chunonchi, o'tgan 2024-yilda mahalliy nashriyot va matbaa korxonalari tomonidan 195 nomdagi 271 mingdan ziyod nusxada adabiyotlar chop etilgani bunga misol bo'la oladi.

**Shu zayl, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi hozirda axborot sohasidagi ishlarni zamon talablariga mos ravishda samarali amalga oshirish, ommaviy axborot vositalari, matbuot, nashriyot-matbaa, axborot-kutubxona hamda davlat organlari va boshqa tashkilotlar axborot xizmatlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishni yangicha sharoitda izchil davom ettirib kelmoqda.**

**MUTAXASSIS MINBARI**  
Prezidentimiz rahbarligida barcha soha va tarmoqlar qatori davlat xizmati sohasida ham katta o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ya'ni kadrlar tanlashning shaffof va adolatlilik tizimini yaratish, yoshlarni rahbarlik lavozimlarga tayyorlab borish, davlat xizmatchilarining uzluksiz malaka oshirib borishi kabi yo'nalishlarda tub islohotlar olib borilayotgani mamlakatimizda davlat fuqarolik xizmati, xususan, davlat xizmatlari ko'rsatish sifatini oshirib, aholining davlat idoralari bo'lgan ishonchini oshirishga xizmat qilmoqda.

## MERITOKRATIYA TAMOIYI AMALDA

Davlat boshqaruvi sohasida demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish maqsadida 2024-yil 8-avgust kuni "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Mazkur Qonunda davlat fuqarolik xizmatchilarining huquqiy maqomi aniq belgilanib, davlat fuqarolik xizmati lavozimida o'z faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi davlat fuqarolik xizmatchisi ekanligi ko'rsatib o'tildi.

Qonunda davlat fuqarolik xizmatchilarining asosiy prinsiplari qatoriga "Xalqqa xizmat qilish" va "Davlat organlarining va mansabdor shaxslarning jamiyat hamda fuqarolar oldida mas'uligi" prinsiplarining kiritilishini alohida e'tirof etish o'rinlidir. Boisi, bu inson qadri ulug'langan yurtimizda barcha islohotlar inson va uning manfaatlariga xizmat qilayotgani jamiyat hayotida o'z aksini topayotganining yorqin ifodasidir.

Buni davlat xizmatchilarining Vatanga sadoqat va xizmat vazifasiga fidoyilik, davlat va jamiyat manfaatlariga sodiqlik, adolatlilik, halollik va xolislik, korrupsiyaviy holatlarga murosasiz munosabatda bo'lish va qarshi kurashish, halollikni kundalik shiorga aylantirish, xushmuomalalik, e'tiborlilik va hushyorlik bilan fuqarolarda davlatga nisbatan ishonch va hurmat hissinu uyg'otish kabi prinsiplar asosida amalga oshirish shartligi belgilangan O'dob-axloq qoidalarining qabul qilinishida ham ko'rish mumkin.

Shuningdek, qonunda manfaatlar to'qnashuvi normasi ham aks ettirilgan. Ushbu normada, manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda, davlat fuqarolik xizmatchisi o'zining rahbariga yoki yuqori turuvchi davlat organiga darhol yozma shaklda xabar qilishi kerakligi va manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi to'g'risida ma'lumotlar olgan davlat organining rahbari esa ushbu to'qnashuvni bartaraf etish yuzasidan o'z vaqtida choralar ko'rish shartligi belgilanib qo'yildi.

Davlat xizmatiga kirishning agentlik tomonidan yo'lga qo'yilgan ochiq mustaqil tanlov mexanizmlari orqali meritokratiya tamoyili amalda ishlay boshladi. Ushbu yangicha tanlov tartibotlari sohada tanish-bilishchilik va turli korrupsiogen omillarning oldini oladi.

Endilikda davlat organlariga kimningdir tavsiyasi yoki subyektiv fikri emas, balki barcha uchun teng va ochiq bo'lgan, inson omili maksimal kamaytirilgan, talabgorning malakasi va kasbiy kompetensiyalarining sog'lom raqobatini ta'minlaydigan "vacancy.argsos.uz" elektron portali orqali eng munosib nomzodlar tanlab olinmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, davlat xizmatchisi o'z ustida muntazam ishlaydigan, kasbiy va zamonaviy bilimlarni puxta egallagan, tahsil va tafakkur qilishi, muammolarni hal etishda yangicha fikrlar bilan yondashish qobiliyatlariga ega bo'lgan yetuk va fidoyi shaxs bo'lishi lozim.

**Sherzod XIDIROV,**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi viloyat filiali bosh inspektori

## QALBINGIZNI AVAYLANG...

**O'zbekiston o'zining dinga munosabatini aniq va qat'iy belgilab olgan. Zero, davlatning dinga munosabati "Inson e'tiqodsiz yashay olmaydi", degan aniq tamoyillar asosida belgilandi. Bu tamoyil bosh qomusimiz Konstitutsiya hamda "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunda o'zining huquqiy ifodasini topgan.**

Diniy tashkilotlar qaysi konfessiyaga taalluqliligidan qat'i nazar, faoliyat borasida bir xil huquqqa egadirlar. Ushbu diniy tashkilotlarning emin-erkin faoliyat olib borayotgani ham yurtimizda hukm surayotgan diniy

bag'rikenlikning amaliy ifodasidir. Ayniqsa, respublikamizda mavjud dinlar orasida islomning mavqeyi nihoyatda katta. Xususan, hozirgi kunda O'zbekiston aholisi 130 dan ziyod millat

va elatlarga mansub hisoblanadi. Mamlakatimiz aholisining asosiy qismi islom diniga e'tiqod qiladi. Shu bois, islom dini davlatimiz tub xalqlarining tarixiga, o'tmish merosiga, madaniyatiga, ruhiyatiga

chuqur singib ketgan. Bugungi globalashuv jarayoni dunyoni bir butun va yaxlit qila borishi bilan bir qatorda, uning hosilasi sifatida alohida olingan millat va jamiyatlar darajasida o'z-o'zini anglashga bo'lgan intilishning chuqurlashuviga ham zamin yaratmoqda. Afsuski,

kommunikatsiya va informatsion texnologiyalarning tez sur'atlardagi taraqqiyoti g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlarining kengayishiga turtki bo'lib, geosiyosiy maqsadlarga bo'ysundirilgan, inson qalbi va ongi uchun kurashlarning yangidan yangi usul va vositalarining ko'payishiga yo'l

ochmoqda. Ayniqsa, din niqobi ostidagi harakatlar yaqqol namoyon bo'layotir. Aksariyat holatlarda ushbu kurash qurolli tus olib, ko'plab xalqlarning boshiga fojiali kunlarni solmoqda. Bu esa har birimizdan yanada sergak bo'lishni talab etadi.

**Bobir XRATOV,**  
IIB viloyat Transportda XTB xodimi, mayor



# KLASTER — TIBBIY SOHA RIVOJIGA KENG YO'L OCHADI

PREZIDENT TASHABBUSI

Mamlakatimizda hurmatli Prezidentimiz tashabbuslari bilan olib borilayotgan islohotlar ko'lami tobora kengayib bormoqda. Natijada yuqori malaka va texnologiyalar talab qiladigan tibbiy xizmat turlari ortib, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sifati yildan-yilga ijobiy o'zgarishiga erishilmoqda. Bu borada poytaxtimiz Toshkentdagi 25 ta ixtisoslashgan tibbiyot markazining 100 dan ortiq filiali viloyatlarda faoliyat yuritayotganini eslatib o'tish zarur. Respublikamizda zamonaviy uslubda ish yurituvchi tibbiyot klasterlarining tashkil etila boshlashi ayni muddao bo'ldi. Xususan, viloyatimiz markazi Termiz shahrida yurtimizda birinchilardan bo'lib ana shunday tibbiyot muassasasi faoliyati yo'lga qo'yilmoqda. Muxbirimiz viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazi bosh shifokori Botir MAMASOATOV bilan tibbiyot klasteri oldida turgan muhim vazifalar haqida suhbatlashdi.



— **BOTIR OCHILDIYEVICH, YURTIMIZDA BO'LGANI KABI, ODAMLAR KO'NGLIDA HAM BAYRAM SHUKUHI KEZIB YURIBDI. SHU MUNOSABAT BILAN SIZNI VA SIZ ORQALI JAMOANGIZNI YANGI YIL BILAN CHIN QALBDAN QUTLAYMIZ!**

— Rahmat. Yangi yil barchamiz uchun omadli bo'lsin.

— **TABIYKI, BUNDAY KEZLARDA YAKUNLANGAN YILNING SARHISOBI OLINADI. SHU MUNOSABAT BILAN SO'RAMOQCHI EDIM: XO'SH, O'TGAN YIL DAVOMIDA SIZ BOSHQARAYOTGAN SHIFOKORLAR JAMOASIDA QANDAY YANGILIK HAMDA O'ZGARISHLAR RO'Y BERDI? ERISHILGAN NATIJALAR KO'NGILDAGIDEK BO'LYAPTIMI?**

— Ta'kidlaganingizdek, haqiqatan ham, hozir umrimizning yana bir yilini tarix sahifalariga kuzatdik. Barcha mehnat jamoalarida bo'lganidek, biz ham yil davomida qilib ulgurgan ishlarimizning sarhisobini o'laymiz. Mammuniyat bilan qayd etishim kerakki, yil yakuniga oid dastlabki tahlillarga ko'ra, elimiz sog'ligini mustahkamlashga qaratilgan faoliyatimiz yaxshi samaralar beriyapti. Bu — tibbiyot sohasidagi eng so'nggi yangilik hamda o'zgarishlarni amaliyotga dadil tatbiq etayotganimiz natijasidir. O'rni kelib qoldi, eslatib o'tay, ko'p tarmoqli tibbiyot markazimizda bir yo'lga 400 nafar bemor davolanishi mumkin. Ularga 17 ta klinik, 5 ta paraklinik bo'lim shifokorlari tibbiy xizmat ko'rsatmoqda. Aytish mumkinki, erishilayotgan samaralar ham shunga yarasha bo'lyapti.

— **BILISHIMCHA, SIZ VOHAMIZDAGI ENG YIRIK SHIFOKORLAR JAMOASINI BOSHQARYAPSIZ. AYTING-CHI, USHBU KO'P TARMOQLI MARKAZDA HOZIRGI KUNDA QANCHA TIBBIYOT XODIMI FAOLIYAT YURITYAPTI?**

— Nomlanishining o'zidan qo'ldan ma'lum bo'lib turganidek, jamoamiz aholiga tibbiyotning turli muhim tarmoqlari bo'yicha xizmat ko'rsatib kelyapti. Chunki bu markazda 647 nafar tibbiyot xodimi faoliyat yuritayapti. Boshqacha aytganda, 98 nafar vrach, 294 nafar hamshira, 210 nafar kichik tibbiyot xodimi va boshqa ishchilar bemorlarga xizmat ko'rsatmoqda. Biz uchun o'tgan yil har qachongidan ham esda qolarli bo'ldi, desam mubolag'a o'rinda ko'rmang. Markazimiz qoshida zamonaviy talablarga to'liq javob beradigan yangi binoda joylashadigan tibbiyot klasteri o'z faoliyatini boshlashga shay qilib qo'yilanligi fikrimning yorqin dalilidir. Ma'lum bo'lyaptiki, shunga yarasha bu yerda ishlayotgan xodimlar soni ham, dardiga shifo topib ketayotganlar ham sezilarli darajada ortadigan bo'lyapti. Eng muhimi, tibbiy klaster — sohani rivojlantirishga yana bir keng yo'l ochyapti. Lo'nda qilib aytadigan bo'lsam, klaster bemorlarga

tibbiy xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirishda muhim omil vazifasini o'tashi kutilmoqda.

— **OCHIG'INI AYTGANDA, SIZDAN ANA SHU KLASTER HAQIDA SO'RAMOQCHI EDIM. AYTING-CHI, SURXONDARYO TIBBIYOT KLASTERINI TASHKIL ETISH G'OYASI QACHON VA QANDAY TUG'ILGAN EDI, O'ZINGIZ?**

— Ushbu savolingizga bir qadar kengroq javob bersam, avvalo, Prezidentimizning 2022-yil 28-yanvarda e'lon qilingan "2022—2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonini eslatib o'tmoqchiman. Chunki ushbu tarixiy hujjatda inson manfaatlarini ustuvor darajada ta'minlashga, jumladan, yurtimizda tibbiyot sohasini yanada rivojlantirishga qaratilgan zaruriy choratadbirlar ko'rishdek muhim vazifalar belgilab berilgan. Bugun vohamiz tibbiyotida neki o'zgarishlar sodir bo'layotgan bo'lsa, barchasi ana shu Farmon va tibbiyot sohasiga oid boshqa hujjatlar tufaylidir.

Men uchun quvonarli tomoni shundaki, nafaqat bo'lajak yosh kadrlarga sifatli ta'lim berish, balki faoliyat yuritib turgan mutaxassis shifokorlarni ham qayta tayyorlash ishlariga keyingi yillarda alohida e'tibor qaratilmoqda. Tibbiyot oliyog'ohlarini bitirayotganlarga esa joylarda yetarlicha shart-sharoit yaratilib, o'z ixtisosliklari bo'yicha ish bilan ta'minlanishiga erishilmoqda.

Yana bir gap. Taraqqiy etgan xorijiy davlatlardan tibbiy-texnik uskunalar, butlovchi buyumlar, aniq va sifatli tashxis qo'yishda shifokorlarga beminat yordamchi bo'la oladigan turli jihozlar keltirilayotgani ham ayni muddao bo'lmoqda. Chunki bunday "aqlli" jihozlar va apparatlar tibbiyotimizning bugungi rivoji darajasida ta'lim olgan yosh mutaxassis shifokorlar ishini yanada osonlashtiradi, to'g'ri tashxis qo'yish va samarali davolashda ko'p qulayliklarni yuzaga keltiradi. Aslida, ayni kunlarda olib borayotgan ishlarimizdan ko'zlangan bosh maqsad — shu. Siz qiziqayotgan tibbiyot klasteri ham ana shu niyatda tashkil etilmoqda. Chunki klaster el sog'ligini muhofaza etishni yanada takomillashtirish, davolash hamda tashxis qo'yish ishlarini sifat va saviya jihatidan yangi pog'onaga ko'tarish imkonini beradi.

— **AGAR YODINGIZDA BO'LSA, BUNDAN AVVAL HAM SIZ BILAN VILOYAT KO'P TARMOQLI TIBBIYOT MARKAZI ISTIQBOLLARI HAQIDA SUHBATLASHGAN EDIK. O'SHANDA SIZ MAMUNIYAT BILAN YANGIDAN TASHKIL ETILAYOTGAN TIBBIYOT KLASTERI TO'G'RISIDA SO'ZLAB, BU YANGILIKNI HAYOTGA TATBIQ ETISH UCHUN ALOHIDA, MAHOBATLI YANGI BINO QURILAYOTGANI HAQIDA TO'XTALIB O'TGAN EDINGIZ. VAQT — YUGURIK DEGANLARI, ROST-DA. QARANG, ORADAN HECH QANCHA VAQT O'TMAY, MANA, SHIFOKORLAR FAOLIYATINI**

**YANADA KENGAYTIRISHGA XIZMAT QILADIGAN BINO FOYDALANISHGA SHAY HOLATGA KELITIRILDI. SAVOLIM SAL ORTIQCHADEK TUYULSA-DA, BARIBIR, O'RNI KELIB QOLDI, SO'RAY: TIBBIYOT KLASTERI DEGANI NIMA O'ZI, TIBBIYOTNING BIROR QO'SHIMCHA SOHASIMI, YOKI...**

— Balki o'zingiz ham yaxshi bilarsiz, hozirgi kunda bizning tibbiyot markazimizda 10 dan ortiq Respublika ilmiy markazlarining filiallari faoliyat yuritib turibdi. Vohamizdagi ana shu filiallarning bir nechtasini bir joyda birlashtirish, transplantologiya, xirurgik angionevrologiya, kardiokirurgiya kabi markazlarning yangi ochiladigan filiallari ish boshlashi kutilmoqda. Boya siz mahobatli deya to'g'ri ta'riflagan 7 qavatli binoda bir yo'lga 300 nafar bemor davolana oladi. Tibbiyot klasteri qoshida zamonaviy asbob-uskunalar hamda telemeditsina bilan jihozlangan klinik, tibbiyot akademiyasining so'nggi innovatsion texnologiyalari asosida jihozlangan 450 o'rinni o'quv xonalari va konferensiya zallari ishga tushiriladi.

— **GAPINGIZGA QARAGANDA, SOHA UCHUN MUHIY YANGILIK BO'LGAN BUNDAY TIBBIYOT KLASTERI KORPUSI MAMLAKATIMIZDA BIRINCHI BOR BUNYOD ETILIBDI-DA, TO'G'RIMI?**

— Fikringiz qisman to'g'ri. — **NEGA ENDI, QISMAN? YO, BOSHQA VILOYATLARDA HAM BUNDAY AJOYIB BINO ALLAQACHON BUNYOD ETILGANMI?!**

— Tibbiyot klasterlarini tashkil etish birinchi bor Sirdaryo viloyatida boshlangan. Lekin u yerda bu paytga qadar mavjud bo'lgan binolar ta'mirlanib, birlashtirilib, tibbiyot klasteriga aylantirilgan. Lekin Surxondaryoda u barcha zamonaviy qulaylik va sharoitlarga ega maxsus bino sifatida birinchi bor qurildi.

— **SHUKRKI, MAMLAKATIMIZ POYTAXTIDA TIBBIYOTNING U YOKI BU SOHASI BO'YICHA TURLI IXTISOSLASHGAN MARKAZLAR, VILOYATLARDA ESA ANA SHU MARKAZLARNING FILIALLARI MUVAFFAQIYATLI ISHLAB TURIBDI. LEKIN SHULARGA QO'SHIMCHA RAVISHDA YANA MAXSUS TIBBIYOT KLASTERI TASHKIL ETISH ZARURATI TUG'ILGANLIGINING SABABI NIMADA?**

— Xabaringiz bor, 2017-yilda Prezidentimizning topshiriqlari asosida Toshkent tibbiyot akademiyasining Termiz filiali tashkil etilgan edi. Ushbu filialga qabul qilingan talabalar endilikda olti bosqichli o'quv tizimiga o'tkazildi. Bu esa maxsus tibbiy klaster tashkil etish zaruratini keltirib chiqardi. Chunki talabalarning oliy o'quv yurtida olatyotgan bilim va salohiyatini amaliyot bilan bog'lash, malakali hamda yuqori texnologiyali tibbiy apparaturalarda ishlash qobiliyatiga ega kadrlar tayyorlash uchun klinik bazalar yetishmasligi tufayli nazariy va amaliy o'quv mashg'ulotlarini uzviy bog'liqlikda olib borishda qator muammolar yuzaga kelayotgandi. Negaki, viloyatimizda shifoxonalardan klinik baza sifatida foydalanish ko'zda tutilmagandi. Bu, siz so'rayotgan zaruratni keltirib chiqargan masalaning bir tomoni. Ikkinchidan esa, viloyatda kardiologiya, angiokirurgiya, buyrak transplantatsiyasi bo'limlari yaqinlarga ham yo'q edi. Ixtisoslashtirilgan diagnostika markazining yo'qligi va shifoxonalarning tarqoq holda joylashganligi sababli, bemorlar qaysi kasallikka chalinganini aniqlash bo'yicha ko'rikdan o'tish, to'liq tashxis qo'yish

hamda malakali ixtisoslashgan tibbiy yordam olish uchun tibbiyot muassasalari o'rtasida sarson bo'lishayotgandi. Bunday ortiqcha ovoragarchiliklarga barham berish, qolaversa, yaxshi bilim va malakaga ega kadrlar tayyorlash masalasini yuqoriroq darajada hal etish uchun viloyatimizda tibbiyot klasteri tashkil etilyapti. O'ylaymanki, bu vohada tibbiyot sohasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

— **AYTIB O'TGANLARINGIZDAN TASHQARI TIBBIYOT KLASTERINING YANA QANDAY AFZALLIKLARI BOR?**

— Klasterning tashkil etilishi mavjud markazlarning bir-birini takrorlaydigan boshqaruv va klinik bo'limlari faoliyatini yanada optimallashtiradi.

— **OPTIMALLASHTIRISH DEGANDA, NIMANI NAZARDA TUTYAPSIZ?**

— Tibbiyotni optimallashtirish — bir xil vazifani bajaradigan mutaxassisliklarga ehtiyoj kamayadi va joylardagi tibbiyot muassasalarini mutaxassislar bilan ta'minlash bilan bog'liq muammolar bartaraf etilishiga erishiladi, deganidir. Yanayam oydinroq qilib aytadigan bo'lsam, tarqoq holda joylashgan tibbiyot muassasalarining markazlashtirilishi hisobiga yuqori texnologik asbob-uskunalar bo'lgan talab kamayishi ta'minlanadi. Bu yo'nalishga, ya'ni xarid qilishga sarflanadigan mablag'lar tejraladi. Ya'ni, markazlashtirilgan tibbiyot muassasalarining barchasi uchun zarur bo'lgan apparatlar, masalan, sun'iy qon aylantirish va angiograf apparatlari, MRT xaridiga sarflanadigan mablag'lar tejraladi, bir-birini takrorlaydigan xizmatlar hisobidan (ish haqi va undan ajratmalar, kommunal xarajatlari, yana boshqa 4 ta guruh xarajatlari, tibbiy asbob-uskunalar xaridi) bir yilda sarflanadigan milliardlab mablag' sarflanishini kamaytirish imkonini paydo bo'ladi. Tejalgan mablag'lar el-yurt sog'ligini muhofaza qilishning boshqa ehtiyojlarini qoplashga yo'naltiriladi. Tejamkorlikka erishishning yana bir ijobiy tomoni shundaki, tibbiyot klasteri uchun xarid qilingan asbob-uskunalar hammasi bitta joyda jamlanadi, ya'ni viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazida joylashtiriladi. Xullas, oddiyroq qilib aytadigan bo'lsam, davolanayotgan bemorlar ko'p shimcha tekshiruv hamda tashxisni yanada aniqlashtirish uchun ovora bo'lib yurmaydilar. Barcha tekshiruvlar bitta joyda amalga oshiriladi, davolanish ham shu yerning o'zida bo'ladi. Demokchiyanki, bemorlarning respublikamiz markaziga davolanish yoki tashxisni aniqlashtirish uchun qatnab yurishiga hojat qolmaydi.

— **TUSHUNISHIMCHA, TEKSHIRISH, TASHXISLASH VA DAVOLASH ISHLARI BIR JOYNING O'ZIDA OLIB BORILADI, TO'G'RIMI?**

— Xuddi shunday. Bu borada yuqorida aytganlarimga shuni qo'shimcha qilishim mumkinki, viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazi hududida tashkil etilgan klaster hisobiga 12 ta tibbiyot markazi bitta joyda jamlanadi. Ko'rinib turibdiki, tibbiyotning shuncha asosiy va yetakchi

sohalarining yonma-yon faoliyat olib borishi tezkor tashxislash va davolash imkonini yuzaga keltiradi. Bu esa davolash ishlariga yuksak samaradorlik ta'minlanadi, deganidir.

— **NAZARIMDA, TIBBIYOT KLASTERINING ISHLAY BOSHLAGANI NAFAQAT SOHA XODIMLARI VA BEMORLAR UCHUN, BALKI VILOYATIMIZDA BOSHQA SOHALAR RIVOJIGA HAM TURTKI BERADIGAN BO'LIBDI-DA, NIMA DEDINGIZ?**


— Masalaning bu tomoniga ham yaxshi e'tibor qaratilsiz. Haqiqatan ham, viloyatimizda tibbiyot klasterining faoliyat boshlashi nafaqat vohamiz ahlini samarali davolash va o'z vaqtida to'g'ri tashxis qo'yish ishlarini yaxshilaydi, balki boshqa sohalar faoliyatiga ham ijobiy ta'sir etadi. Yurtimizda xalqaro va ichki turizmni yanada rivojlantirish ishlariga alohida e'tibor qaratilayotganidan xabardorsiz. Shu ma'noda aytadigan bo'lsam, Termiz shahrining jug'rofiy joylashuvi qulayligi sababli, viloyat markazida tibbiy turizm rivojlantiriladi. Chunki qo'shni respublikalarning fuqarolari ham viloyatimizga kelib davolanishlari uchun qulay sharoit yaratiladi. Ya'ni, vohamiz mehmonlari Surxon zaminining ajoyib manzaralaridan bahramand bo'lish barobarida, sifatli hamda malakali tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniga ega bo'ladi.

— **O'RNI KELIB QOLDI, SO'RAY: HOZIRGACHA HAM VILOYAT KO'P TARMOQLI TIBBIYOT MARKAZIGA XORIJLIKLAR MUHOJIRAT QILISHGANMI?**

— Bu savolingizga yaxshisi raqamlar bilan javob bera qolay. Viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markaziga 2018-yilda — 558 nafar, 2019-yilda — 647 nafar, 2020-yilda — 693 nafar, 2021-yilda esa 1 805 nafar xorijiy mamlakatlar fuqarolari murojaat qilishgan. Ha deb, raqamlar keltiravermaslik uchun, so'z bilan ayta qolay: keyingi ikki yil ichida bu ko'rsatkichlar bir yarim-ikki baravarga ortdi. Dardiga shifo istab bizga murojaat qilayotganlar sonining yildan-yilga ortib borayotgani shifokorlik faoliyatimizga berilgan eng yaxshi bahodir. Nasib bo'lsa, tibbiyot klasteri ishlay boshlagach, bu ko'rsatkichlar yanada ortishiga shubha yo'q.

— **NIHOYATDA BAND BO'LISHINGIZGA QARAMASDAN, VAQT AJRATIB SUHBATLASHGANINGIZ UCHUN RAHMAT!**

Suhbatdosh  
To'ra QOBIL



<p><b>SURXON TONGI</b> va <b>ЗАРЯ СУРХАНА</b> gazetalari tahririyati</p>	<p><b>MUASSISLAR:</b> Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashi va viloyat hokimligi</p>	<p><b>TAHRIR HAY'ATI</b> Jo'rabek TO'RAYEV (hay'at raisi) Abduraim CHORIYEV, Muhiddin ABDURAHMONOV, Dinara EGAMBERDIYEVA, Xurshid KARSHIYEV</p>	<p><b>Gazeta</b> 2017-yil 3-fevralda viloyat Matbuot va axborot boshqarmasida 11-001-raqam bilan qayta ro'yxatdan o'tgan.</p>	<p><b>BOSH MUHARRIR</b> Salohiddin NORQOBILOV <b>MAS'UL MUHARRIR</b> Sayyora ALLAYEVA <b>NAVATCHI MUHARRIR</b> Xolmuhammad Tog'aymurodov <b>SAHIFALOVCHILAR</b> Dildora VOHIDOVA</p>	<p><i>Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Muallif fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.</i></p> <p><b>Reklama va marketing xizmati:</b> 76 224-23-85</p> <p><b>TELEFONLAR:</b> 76 224-23-80, 76 224-22-88</p>	<p>Qo'g'oz bichimi A-2, 2 bosma taboq Nashr indeksi: 6 500 Bosishga topshirildi — 09:00 Bosildi — 11:00 Adadi 1450 nusxa. Buyurtma G-</p>	<p><b>MANZILIMIZ:</b> Termiz shahri, Shukrona ko'chasi, 19-A uy</p> <p><b>BOSMAXONA MANZILI:</b> Termiz shahri, Shukrona ko'chasi, 19-A uy</p>	<p><b>Gazeta "Surxon tongi" va "Заря Сурхана" gazetalarini tahririyati bosmaxonasida chop etildi.</b></p>
	<p>108</p>							